

**NAVOIY VILOYATIDA TIBBIYOT KADRLARI BILAN TA’MINLANISH
MUAMMOLARI VA UNING AHOLI SONI O’SISHIGA TA’SIRI (1994-1999 yy.)****S.I.Xamrayeva***Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Navoiy viloyatida sog’liqni saqlash sohasi tarixi bo’yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar natijasida XX asrning 90-yillarida Navoiy viloyatida tibbiyot kadrlari bilan ta’minlanishdagi holat va muammolar, uning asosiy omillari qiyosiy tahlil metodi yordamida O‘zbekiston ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi materiallari va sohaga oid adabiyotlar asosida o‘rganilib, Samarqand va Buxoro viloyatlari bilan qiyosiy tahlil etilgan. Shu bilan birga 90-yillarning oxirida viloyatda tibbiyot xodimlari soni va ularning ish haqi jamg‘armasi, oylik ish haqi darajasi qo‘shni viloyatlar bilan qiyosiy tahlil etilgan.

Аннотация: В данной статье в результате проведенных научных исследований и изысканий по истории здравоохранения Навоийской области в первые годы независимости, методом сравнительного анализа на основе материалов Национального архива научно-технических и медицинских документов Узбекистана и литературы по данной теме изучается состояние и проблемы обеспечения врачебными кадрами Навоийской области в 90-е годы XX века, основные его факторы, проводится сравнение с Самаркандской и Бухарской областями. В то же время, в конце 1990-х годов, был проведен анализ численности медицинских работников региона, фонда их оплаты труда, уровня ежемесячной заработной платы в сравнении с соседними регионами.

Annotation: In this article, as a result of scientific research and investigations on the history of healthcare in the Navoi region in the first years of independence, using the comparative analysis method based on materials from the National Archives of Scientific, Technical and Medical Documents of Uzbekistan and literature on this topic, the state and problems of providing medical personnel in the Navoi region in the 90 s of the XX th century, its main factors are studied, and a comparison is made with the Samarkand and Bukhara regions. At the same time, in the late 1990 s, an analysis was conducted of the number of medical workers in the region, their wage fund, and the level of monthly wages in comparison with neighboring regions.

Jahonda yuz berayotgan voqeliklar, xususan, iqlim o‘zgarishlari, insoniyat salomatligida muammolarning keskinlashishi, kasallik turlarining ko‘payishi, “Covid-19” pandemiyasi tarqalishi sababli tibbiy yordamga ehtiyoj har qachongidan ortdi. Natijada, onalik va bolalikni muhofaza qilish, tibbiy genetika rivojida zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, birlamchi tibbiy tizimni rivojlantirish, davolashda yuqori texnologik usullardan foydalanish kuchaydi. Tibbiyot sohasiga yangi innovatsiyalarni kiritish, rivojlangan

mamlakatlarning sog‘liqni saqlash tizimida qo‘lga kiritilgan yutuqlarini jahonga yoyish, orttirilgan tajribalarni amaliyotga joriy etish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, uni tarixan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilanoq sog‘liqni saqlash va tibbiyot sohasida sezilari yutuqlarga erishdi. Jumladan, tibbiyot tizimi rivojida Navoiy viloyatida ham samarali natijalarga erishildi. Bu sohada moddiy-texnik ta‘minot va tibbiyot kadrlari masalasiga har doim dolzarb masala sifatida qaralgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida, xususan, 1994-yilda viloyatda mutaxassis vrachlar bilan ta‘minlanish holati 10 ming aholiga hisoblanganda, 2 ming 976 nafar bo‘lib, aholining vrachlar bilan ta‘minlanishi 40 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 1995-yilda esa 2 ming 466 nafar bo‘lib, ta‘minlanish 32,9 foizni tashkil etdi. O‘rta tibbiyot xodimlari bilan ta‘minlanish holati 10 ming aholiga hisoblanganda, 1994-yilda 6 ming 512 nafar bo‘lib, aholining ta‘minlanishi 88,6 foizni, 1995-yilda esa 8 ming 501 nafar bo‘lib, ta‘minlanish 113,6 foizni tashkil etgan²³.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-may “Qishloq ijtimoiy infrastrukturasini rivojlantirishning 1996–2000-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida”gi 182-sonli Qarori va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 1996-yil 30-may 464-sonli buyrug‘iga asosan qishloq vrachlik punktlarining (QVP) tashkil etilishi natijasida aholiga o‘z vaqtida tibbiy yordam ko‘rsatish masalasi birmuncha yechim topdi. 1996-1997-yillarda amalga oshirilgan tadbirlar natijasida respublika bo‘yicha 247 ta yangi qurilgan va 417 ta qayta ta‘mirlangan binolarda qishloq vrachlik punktlari tashkil etildi²⁴. Natijada, kasalliklar tufayli vafot etish holatlari kamaya boshladi. Lekin, aholining mutaxassislar bilan ta‘minlanish darajasi hanuz past edi. 1996-yilda aholining tibbiy mutaxassislar bilan ta‘minlanishi holati Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlari misolida qiyoslanganda, Navoiy viloyatining ko‘rsatkichlari ancha past bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Buxoro viloyatida jami mutaxassislar soni 3 ming 884 nafar bo‘lib, mutaxassislar bilan ta‘minlanish har 1000 kishiga nisbatan 28,74 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Samarqand viloyatida jami mutaxassislar soni 8 ming 330 nafar bo‘lib, mutaxassislar bilan ta‘minlanish 33,11 foizni tashkil etgan. Navoiy viloyatida mutaxassislar soni 1 ming 545 nafarga yetib, mutaxassislar bilan ta‘minlanish 20,48 foizni tashkil etgan. Respublika bo‘yicha jami mutaxassislar soni 730 ming 46 nafar bo‘lib, mutaxassislar bilan ta‘minlanish 31,45 foizga yetgan²⁵. Yuqoridagi raqamlar qiyoslanar ekan, Navoiy viloyati ko‘rsatkichi respublika darajasidan ancha pastligi aniqlandi. Quyidagi jadvalda Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida mutaxassis vrachlar bilan ta‘minlanish ko‘rsatkichi keltirilgan.

1.1 - jadval²⁶

Aholining Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida mutaxassis vrachlar bilan ta‘minlanish holati

²³ Navoiy viloyati statistika boshqarmasi idoraviy arxivi. 1996-yil ma‘lumoti.

²⁴ Здоровье населения в Республике Узбекистан и некоторые итоги реформ в здравоохранении. Информационно-статистический сборник. / Под ред. проф. Ш.И. Каримова. – Ташкент, 1998. – С. 43.

²⁵ O‘zbekiston ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi (O‘zITTHMA.) M-372-fond, 1-ro‘yxat davomi, 389-yig‘majild, 28-varaq.

²⁶ Ushbu jadval O‘zITTHMA. M-372-fond ma‘lumoti asosida tuzildi.

Aholining terapevtlar bilan ta'minlanishi (1996-yil)			
T/R	Viloyatlar	Mutaxassislar soni	Mutaxassislar bilan ta'minlanish, foizlarda
1.	Buxoro viloyati	590	4,37
2.	Navoiy viloyati	223	2,96
3.	Samarqand viloyati	1055	4,19
	Respublika bo'yicha jami	9924	4,27
Aholining pulmonologlar bilan ta'minlanishi (1996-yil)			
T/R	Viloyatlar	Mutaxassislar soni	Mutaxassislar bilan ta'minlanish, foizlarda
1.	Buxoro viloyati	8	0,06
2.	Navoiy viloyati	11	0,15
3.	Samarqand viloyati	40	0,16
	Respublika bo'yicha jami	236	0,10 ²⁷
Aholining kardiologlar bilan ta'minlanishi (1996-yil)			
T/R	Viloyatlar	Mutaxassislar soni	Mutaxassislar bilan ta'minlanish, foizlarda
1	Buxoro viloyati	46	0,34
2	Navoiy viloyati	10	0,13
3	Samarqand viloyati	67	0,27
	Respublika bo'yicha jami	885	0,38 ²⁸
Aholining revmatologlar bilan ta'minlanishi (1996-yil)			
T/R	Viloyatlar	Mutaxassislar soni	Mutaxassislar bilan ta'minlanish, foizlarda
1.	Buxoro viloyati	15	0,11
2.	Navoiy viloyati	3	0,04
3.	Samarqand viloyati	29	0,12
	Respublika bo'yicha jami	246	0,11 ²⁹

²⁷ O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 389-yig'majild, 31-varaq.²⁸ O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 389-yig'majild, 33-varaq.²⁹ O'sha manba, o'sha sahifa.

Tadqiqot va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Navoiy viloyatida yuqorida qayd etilgan mutaxassisliklardan tashqari endokrinolog, allergolog, gematolog, profpatolog, diyetolog, fizioterapevt, jarroh, ambulatoriya jarrohi, bolalar jarrohi, neyrojarrroh, anesteziolog-reanimatolog, travmatolog-ortoped, urolog, onkolog, onkojarroh, onkoginekolog, radiolog, stomatolog, akusher-ginekolog, pediatr, pediatr-neontolog, ftiziater, nevropatolog, sud-tibbiyot ekspertlari mutaxassislarning mavjud ko‘rsatkichlari Buxoro va Samarqand viloyatlari ko‘rsatkichlaridan ancha past bo‘lgan. Viloyatda, hatto, nefrolog, yurak-qon tomiri jarrohi, torakal jarroh, onkojarroh, radiolog kabi mutaxassislar umuman mavjud bo‘lmagan³⁰. Zarur vaziyatlarda viloyat aholisi boshqa viloyatlar mutaxassislarga murojaat qilishgan. Mutaxassis xodimlarning yetishmasligiga sabab viloyatda xodimlar tayyorlash masalasiga sovuqqonlik bilan qarash, tibbiyot institutining mavjud bo‘lmaganligi va respublikada mavjud tibbiyot institutlarining viloyat hududlaridan ancha yiroqda joylashganligidir.

Tibbiyot kadrlarining yetishmasligi aholining ijtimoiy hayotiga o‘z salbiy ta‘sirini ko‘rsatgan edi. XX asrning 90-yillari ikkinchi yarmida O‘zbekistonda o‘lim holatlarining yuqori darajada bo‘lishi sababli aholi salomatligini mustahkamlash va farzand ko‘rish yoshidagi ayollarning salomatligini yaxshilash dolzarb muammoga aylangan edi. Bunday muammolarning oldini olish maqsadida hukumat tomonidan hududlarda zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1997-yil 25-martda Toshkentdan Navoiy viloyati aholisiga tibbiy yordam ko‘rsatish uchun yuqori malakali shifokor mutaxassislar hamda zamonaviy diagnostika apparatlari bilan jihozlangan “Ekosan” xalqaro jamg‘armasining “Salomatlik” poyezdi jo‘natildi³¹. Ushbu tadbirni amalga oshirishdan asosiy maqsad Navoiy viloyati aholisining salomatligini yaxshilash, kasalliklar va o‘lim darajasini pasaytirishdan iborat edi. 1997-yilda viloyatda tug‘ilish va vafot etish holati ilovadagi jadvalda aks ettirilgan (№2-ilovaga qaralsin).

1997-yil davomida o‘lim holatlarining pasaymaganligiga ekologik vaziyat, farzand ko‘rish yoshidagi ayollarda kamqonlik, aholining toza ichimlik suvi bilan to‘la ta‘minlanmaganligi kabi sabablar qatorida viloyat aholisi uchun mutaxassis tibbiyot xodimlarining yetishmasligi ham asosiy sabab ekanligini arxiv materiallari tasdiqlaydi. Tahlillarga tayanib, respublikada har 10 ming nafar aholini mutaxassis vrachlar bilan ta‘minlanishi jihatidan Samarqand va Buxoro viloyatlari bilan Navoiy viloyati qiyoslanganda ancha katta farq bo‘lganligini arxiv materiallari isbotlaydi (№3-ilovaga qaralsin).

Ikkinchi bosqichda, ya‘ni 1998-yilgacha bo‘lgan davrda qabul qilingan davlat dasturi doirasida shifoxonalarda koykalarining soni bir muncha oshirildi. 1995-yilda Navbahor tumani DSENM (Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazi) binosi mukammal

³⁰ O‘zITTHMA. M-372-fond, 1-ro‘yxat davomi, 389-yig‘majild, 36-, 48-, 49-, 57- va 59-varaqlar.

³¹ Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиқлол йилномаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 451.

ta'mirlandi³². 1996-yilda Navoiy tumani yuqumli kasalliklar 2-bolalar bo'limi qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Navoiy shahar markaziy poliklinikasi va viloyat bolalar shifoxonasi tashkil etildi. 1997-yilda Xatirchi tumani markaziy shifoxonasi yuqumli kasalliklar bo'limi mukammal ta'mirdan chiqarildi. "Uchqora" shirkat xo'jaligida 50 o'rinli, Qiziltepa tumani "Zarmetan" shirkat xo'jaligida 58 o'rinli, Navbahor tumani "Yangiqo'rg'on" shirkat xo'jaligida 40 o'rinli qishloq vrachlik punktlari ishga tushirildi³³. Ushbu qishloq vrachlik punktlarini mutaxassis shifokorlar bilan ta'minlash sog'liqni saqlash sohasining dolzarb muammosi sifatida saqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-sonli Farmoni asosida "1998–2005-yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi" qabul qilinib, tizimning amaldagi huquqiy-me'yoriy asoslari qayta ko'rib chiqilishi, soha mutaxassislarini tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida kvotalarning kengaytirilishi, pulli tibbiy xizmatga o'tilishi, qishloq vrachlik punktlari tarmog'ini rivojlantirish kabi masalalar ustuvor vazifa qilib belgilandi. 1998-yil davomida viloyat bo'yicha 13 ta QVP qurilib ishga tushirildi³⁴. Jumladan, Qiziltepa tumanida 2 ta, Konimex tumanida 3 ta, Navbahor tumanida 2 ta, Xatirchi tumanida 1 ta, Uchquduq tumanida 2 ta, Tomdi tumanida 2 ta va Nurota tumanida 1 ta QVP tashkil etildi. Ushbu tumanlarda QVPlarning ishga tushirilishi natijasida viloyat aholisiga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish darajasi birmuncha oshdi. Natijada, onalar va bolalar salomatligi muhofazasiga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Aholi orasida xavfli va yuqumli kasalliklarga chalinish darajasi kamaydi. Ko'rilgan barcha chora-tadbirlar natijasida Navoiy viloyatida aholi salomatligi, xususan, onalar sog'lig'i yaxshilanib, tug'ilish darajasi oshdi. Masalan, 1999–2001-yillarda tug'ilish 19-20 promillega, o'lim 5,0-5,3 promillega, tabiiy ko'payish 14-15 promillega teng bo'ldi. Tug'ilishning eng yuqori ko'rsatkichlari Xatirchi va Nurota tumanlariga to'g'ri keldi³⁵.

Navoiy viloyatida tibbiyot xodimlarining ish haqi kamligi ham tibbiyot xodimlari bilan to'liq ta'minlanish muammolarini keltirib chiqargan. Viloyatda tibbiyot xodimlari soni va ularning ish haqi jamg'armasi, oylik ish haqi darajasini qo'shni viloyatlar bilan qiyosiy tahlil etilganda, shu narsa ayon bo'ldiki, 1998-1999-yillarda sog'liqni saqlash xodimlari soni va ularning ish haqi jamg'armasi Buxoro va Samarqand viloyatlariga nisbatan ancha kam bo'lgan. O'rtacha ish haqi esa Navoiy viloyati aholisiga ekologik zarar uchun to'lanadigan ish haqi hisobidan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganligini ko'rish mumkin. Samarqand viloyatida 1998-yilda 41 ming 461 nafar tibbiyot xodimi bo'lgan bo'lsa, 1999-yilda esa 40 ming 820 nafar bo'lgan. Bu ko'rsatkichning og'ishma holati 1,5 foizni tashkil qildi. Tibbiyot xodimlarining ish haqi fondi 1998-yilda 513 ming 281,1 so'mni tashkil etgan

³² Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун. – Тошкент: Sahhof, 2021 йил. – Б. 34.

³³ Ҳайитов У., Нарзуллаев У. Навоий вилояти қурилиш-меъморчилик тadbirlari тарихи. Қуйи Зарафшон воҳаси ижтимоий, маданий, маънавий ҳаёти тарихи (учинчи китоб). – Навоий, 2008. – Б. 124.

³⁴ Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун... – Б. 34.

³⁵ Нарзуллаев У. Навоий вилоятининг ҳудудий, этник ва демографик хусусиятлари. // Ёш олимлар ахборотномаси. – Тошкент, 2018. – №3-4. – Б. 85.

bo'lsa, 1999-yilda 1 million 31 ming so'mni tashkil etgan. O'rtacha ish haqi 1998-yilda 2 ming 63 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 4 ming 210 so'mni tashkil etgan³⁶.

Buxoro viloyatida 1998-yilda 23 ming 328 nafar tibbiyot xodimi bo'lgan bo'lsa, 1999-yilda esa 22 ming 998 nafarni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichning og'ishma holati 1,4 foizga teng. Tibbiyot xodimlarinnig ish haqi fondi 1998-yilda 363 ming 579,9 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 604 ming 781 so'mni tashkil etgan. O'rtacha ish haqi 1998-yilda 2 ming 598 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 4 ming 383 so'mni tashkil etgan³⁷.

Navoiy viloyatida 1998-yilda 10 ming 301 nafar tibbiyot xodimi bo'lgan bo'lsa, 1999-yilda esa 10 ming 166 nafar tibbiyot xodimi bo'lgan. Bu ko'rsatkichning og'ishma holati 1,3 foizni tashkil qilgan. Tibbiyot xodimlarining ish haqi fondi 1998-yilda 177 ming 914,2 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 300 ming 49,6 so'mni tashkil etgan. O'rtacha ish haqi 1998-yilda 2 ming 879 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 1999-yilda 4 ming 926 so'mni tashkil etgan³⁸.

Xullas, sog'liqni saqlash tizimidagi xodimlar sonini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 1998-yilga nisbatan 1999-yilda butun tizimda xodimlar soni 1,7 foizga qisqargan³⁹. Bunga soha mutaxassislarining xususiy klinikalarga yoki xorijiy mamlakatlarga ishlash uchun ketishi sabab bo'lgan va bu holat aholi o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi idoraviy arxivi. 1996-yil ma'lumoti.
2. Здоровье населения в Республике Узбекистан и некоторые итоги реформ в здравоохранении. Информационно-статистический сборник. / Под ред. проф. Ш.И. Каримова. – Ташкент, 1998. – С. 43.
3. O'zbekiston ilmiy-texnika va tibbiyot hujjatlari Milliy arxivi (O'zITTHMA.) M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 389-yig'majild, 28-varaq.
4. O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 389-yig'majild, 31-varaq.
5. O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 389-yig'majild, 33-varaq.
6. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиклол йилномаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 451.
7. Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун. – Тошкент: Sahhof, 2021 йил. – Б. 34.
8. Ҳайитов У., Нарзуллаев У. Навоий вилояти қурилиш-меъморчилик тадбирлари тарихи. Қуйи Зарафшон воҳаси ижтимоий, маданий, маънавий ҳаёти тарихи (учинчи китоб). – Навоий, 2008. – Б. 124.
9. Тюриков В., Шоғуломов Р. Истиклол йилномаси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – Б. 451.

³⁶ O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 337-yig'majild, 11-varaq.

³⁷ O'zITTHMA. M-372-fond, 1-ro'yxat davomi, 337-yig'majild, 11-varaq.

³⁸ O'sha manba, o'sha sahifa.

³⁹ O'sha manba, 12-varaq.

10. Расулов З. Навоий вилояти тиббиёти. Кеча ва бугун. – Тошкент: Sahhof, 2021 йил. – Б. 34.
11. Нарзуллаев У. Навоий вилоятининг худудий, этник ва демографик хусусиятлари. // Ёш олимлар ахборотномаси. – Тошкент, 2018. – №3-4. – Б. 85.
12. O‘zITTHMA. M-372-fond, 1-ro‘yxat davomi, 337-yig‘majild, 11-varaq.
13. O‘zITTHMA. M-372-fond, 1-ro‘yxat davomi, 337-yig‘majild, 12-varaq.
14. Masalieva, O. (2020). The role of Russian scientists in the source study of the bukhara khanate. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1540-1546.
15. Masalievna, M. O., & Muhitdinovich, J. Z. (2020). The Illumination of Bukhara Khans' Building Enterprise in the Some Historical Sources. Test Engineering and Management, 83(5-6), 1803-1811.
16. Масалиева, О. (2004). Амир Музаффарнинг тарихнавис ўғиллари. Мозийдан садо, (2), 22.
17. Masalieva, O. M. (2021, November). THE PRINCE OF BUKHARA SAYYID MUHAMMAD NASIR AND HIS SCIENTIFIC HERITAGE. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 182-185).
18. Khumora, Z., & Nazim, B. R. THE ROLE OF THE INTERNET IN THE SPREAD OF FAKE INFORMATION.
19. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT
20. ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).
21. Marifjanovna, I. D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 169-172.